

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100



UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR AUDITINING TASHKILIY VA USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bakayev Xurshid Maxmudovich

Hamkorbank OATB Buxoro filiali "Tuqimachi" bank xizmatlari ofisi
boshligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-7694-8450

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalasi yoritilgan bo'lib, bu jarayon moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va aniqligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Uzoq muddatli aktivlar korxonaning asosiy ishlab chiqarish resurslaridan biri hisoblanadi. Ularning to'g'ri hisobga olinishi, eskirish darajasi, amortizatsiyasi va qiymati bo'yicha aniq ma'lumotlar moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Audit jarayonining yuqori sifatda tashkil etilishi ushbu aktivlarning moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlaydi. Maqolada auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, auditorlar guruhini shakllantirish, audit dasturini tuzish kabi tashkiliy jihatlar tahlil etiladi. Shu bilan birga, audit uslublarini tanlash, aktivlarning mavjudligi va bahosini aniqlash, audit dalillarini to'plash hamda xulosa chiqarish kabi uslubiy bosqichlar chuqur o'rganiladi. Xalqaro audit standartlari asosida olib borilgan yondashuvlar milliy amaliyotga moslashtirilib, ilg'or tajribalar asosida takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Uzoq muddatli aktivlar, audit, tashkiliy jihatlar, uslubiy jihatlar, buxgalteriya hisobi, auditorlik tekshiruvi, moliyaviy hisobot, aktivlarni baholash, amortizatsiya, xalqaro audit standartlari, audit xulosasi, ichki nazorat, audit hujjatlari.

Abstract: This article addresses the issue of improving the organizational and methodological aspects of long-term asset auditing, which plays an important role in ensuring the reliability and accuracy of financial statements. Long-term assets are considered one of the main production resources of an enterprise, and accurate data on their proper accounting, wear rate, depreciation, and value directly affect financial results. The high-quality organization of the audit process, in turn, ensures that these assets are correctly reflected in financial statements. The article analyzes such organizational aspects as audit planning, the formation of an audit team, and the development of an audit program. At the same time, methodological stages such as selecting audit methods, determining the existence and valuation of assets, collecting audit evidence, and drawing conclusions are examined in depth. Approaches conducted in accordance with international audit standards are adapted to national practice, and proposals are presented based on advanced expertise.

Keywords: Long-term assets, audit, organizational aspects, methodological aspects, accounting, auditing, financial reporting, asset assessment, depreciation, international audit standards, audit summary, internal control, audit documents.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о совершенствовании организационно-методических аспектов аудита внеоборотных активов, который играет важную роль в обеспечении достоверности и точности финансовой отчётности. Внеоборотные активы являются одним из основных производственных ресурсов предприятия, и точные данные об их правильном учёте, степени износа, амортизации и стоимости напрямую влияют на финансовые результаты. Качественная организация процесса аудита, в свою очередь, обеспечивает корректное отражение этих активов в финансовой отчётности.

В статье анализируются такие организационные аспекты, как планирование аудита, формирование группы аудиторов, составление программы аудита. Также тщательно изучаются методологические этапы, такие как выбор методов аудита, определение наличия и оценки активов, сбор аудиторских доказательств и формулирование заключения. Подходы, основанные на международных стандартах аудита, адаптируются к национальной практике, и на основе передового опыта выдвигаются соответствующие предложения.

Ключевые слова: Внеоборотные активы, аудит, организационные аспекты, методологические аспекты, бухгалтерский учёт, финансовая отчётность, оценка активов, амортизация, международные стандарты аудита, аудиторское заключение, внутренний контроль, аудиторские документы.



KIRISH

Hozirgi davrda iqtisodiyotni liberallashtirish, raqamlashtirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlash yo'lida olib borilayotgan islohotlar korxona va tashkilotlarning buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablarga moslashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydigan uzoq muddatli aktivlar hisobi va ularning auditini takomillashtirish masalasi alohida e'tiborni talab etadi. Chunki bu turdagi aktivlar xo'jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Ular orqali tashkilotning ishlab chiqarish salohiyati, texnologik darajasi, aktivlar aylanishi va foyda olish imkoniyatlari aniqlanadi.

Uzoq muddatli aktivlar deganda, korxona tasarrufida bir yildan ortiq muddat davomida foydalaniladigan va kelgusida daromad keltiruvchi aktivlar tushuniladi. Ular tarkibiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, investitsiya mulklari, uzoq muddatli moliyaviy sarmoyalar, kapital qurilish obyektlari va boshqa shunga o'xshash resurslar kiradi. Bu aktivlar tashkilot balansining katta qismini tashkil etadi va ularning noto'g'ri hisobga olinishi yoki moliyaviy hisobotda noto'g'ri aks ettirilishi tashkilotning moliyaviy ahvoriga, foyda va zarar ko'rsatkichlariga, investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur aktivlarning hisobini yuritish va ularni muntazam auditdan o'tkazish moliyaviy axborotlarning haqqoniyligini ta'minlashda, xo'jalik faoliyati natijalarini baholashda, tashqi va ichki manfaatdor tomonlarning to'g'ri qaror qabul qilishida muhim omil hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, uzoq muddatli aktivlarning auditini sifatli amalga oshirish, uning tashkiliy va uslubiy jihatlarini chuqur tahlil qilish va takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy jihatlarini deganda audit faoliyatini rejalashtirish, auditorlar guruhini shakllantirish, ularning vakolatlarini belgilash, audit jadvalini tuzish va zarur resurslar bilan ta'minlash tushuniladi. Mazkur jihatlar auditning muvaffaqiyatli o'tishi uchun asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Rejalashtirish bosqichi puxta tashkil etilsa, auditorlar vazifasi aniqlashtirilsa va tekshiruv aniq maqsad va muddatlar asosida olib borilsa, audit natijalari ham tegishli darajada bo'ladi. Aksincha, bu bosqichdagi sustkashliklar audit sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uslubiy jihatlar esa audit jarayonida qo'llaniladigan metodikalar, yondashuvlar va texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi va samarali qo'llanishi bilan bog'liq. Masalan, aktivlarning mavjudligi, ularning real qiymati, eskirish darajasi, amortizatsiya hisob-kitoblarning to'g'riligi, hujjatlar bilan muvofiqdigi, foydalanish samaradorligi va boshqa omillarni tahlil qilishda xalqaro audit standartlariga tayangan holda harakat qilish lozim. Ayniqsa, uzoq muddatli aktivlar auditida subyektiv yondashuvlardan yiroq bo'lish, aniq audit dalillari asosida xulosa chiqarish muhim sanaladi. Bu borada elektron hujjatlar, onlayn monitoring, raqamli inventarizatsiya tizimlari, real vaqt rejimida ma'lumotlar tahlili kabi texnologiyalarning qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bu sohadagi qonunchilik ham bosqichma-bosqich takomillashmoqda. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga moslashtirilishi, auditorlik faoliyatining litsenziyalanishi, malakali auditorlar tayyorlash tizimi, ichki va tashqi audit bo'linmalari o'rtasida hamkorlik o'rnatilishi audit sifatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Biroq, shunga qaramay, amaliyotda hali ham ko'plab yechimini topmagan muammolar mavjud. Jumladan, auditorlik tekshiruvlarining formal tusda o'tishi, ayrim faoliyat yo'nalishlariga mos metodikaning ishlab chiqilmaganligi, audit axborot bazasining yetarlicha rivojlanmaganligi kabi omillar mavjud bo'lib, ular bozor iqtisodiyoti sharoitida audit faoliyatining dolzarbligini pasaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uzoq muddatli aktivlar audit masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar audit nazariyasi va amaliyotining chuqur tahliliga asoslanadi. Bu borada bir qator olimlar ushbu mavzuga doir muhim g'oyalar bildirgan va o'z asarlarida auditni tashkil etish hamda uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini asoslab berganlar.

Yunusova D.A. va Nasrutdinova Y.A. o'zlarining "Uzoq muddatli aktivlar audit" nomli tadqiqot ishlarida uzoq muddatli aktivlarga quyidagicha ta'rif berishgan: "Uzoq muddatli aktivlar – bu xo'jalik yurituvchi subyektning xo'jalik aylanishidan chiqarilgan, biroq buxgalteriya balansida aks ettiriladigan o'z mablag'laridir. Ular tarkibiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatilishga tayyor uskunalar, uzoq muddatli aktivlarga kiritilgan investitsiyalar hamda boshqa ayrim turdagi aktivlar kiradi"[2].

G.M. Raximovanning fikricha, uzoq muddatli aktivlar auditini takomillashtirishda moliyaviy hisobotlardagi ishonchlilikni oshirish, ularning mavjudligini tekshirish va samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega. U shunday deydi: "Uzoq muddatli aktivlar auditining asosiy maqsadi – ularning buxgalteriya hisobi to'g'riligini tekshirish, moliyaviy natijalarga ta'sirini baholash hamda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining investitsiyaviy jozibadorligini aniqlashdan iborat" [3]. Bu fikr asosida shuni anglash mumkinki, uzoq muddatli aktivlarning auditini tashkil etishda uslubiy yondashuvlar va tekshiruv mezonlarini aniqlashtirish – audit sifati va xolisligini

ta'minlaydi.

R.X. Sattorov uzoq muddatli aktivlar auditini yanada takomillashtirish zaruratini asoslab beradi. Uning fikriga ko'ra: "Uzoq muddatli aktivlar auditida auditorlar tomonidan moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchiligi va haqqoniyligini ta'minlash uchun aktivlarning mavjudligi, qiymati, ularning huquqiy maqomi va ularni boshqarish samaradorligi chuqur tahlil qilinishi lozim" [4]. U auditning tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar asosida tahliliy yondashuvni joriy etish muhimligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv audit natijalarining aniqligi va ishonchiligidini oshiradi, deb hisoblaydi.

Abdusalomova N.B. uzoq muddatli aktivlar auditini masalasiga alohida e'tibor qaratib, buxgalteriya hisobida ushbu aktivlarning to'g'ri aks ettirilishi hamda audit jarayonida ularning haqiqiy mavjudligi, baholanishi va amortizatsiyasi yuzasidan chuqur tekshiruv olib borilishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha: "Uzoq muddatli aktivlarning hisobi va audit korxonaning moliyaviy barqarorligi hamda hisoboti ishonchiligidini belgilovchi muhim omildir. Shu bois, ularni aniqlash, tasniflash va amortizatsiya hisoblash mexanizmlari hamda hujjat asosida asoslash jarayonlari auditorlik tekshiruvining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak" [5]. Bunga asoslanib aytish mumkinki, mazkur yondashuv auditorlar faoliyatining tizimli va uslubiy asosda olib borilishini talab etadi.

Karimov A.A., Kurbanbayev J.E. va Jumanazarov S.A. uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini muhim moliyaviy ko'rsatkich sifatida ko'rib chiqadi. Ularning fikricha, "Uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy hisobotlardagi aks ettirilishi to'g'riligini ta'minlash uchun ularning hisobga olinishi, baholanishi, eskirishini hisoblash va ularni hisobdan chiqarish tartibining aniq va hujjatlashtirilgan bo'lishi zarur" [6]. Mualliflar audit jarayonida aynan shu jihatlariga e'tibor qaratilishi, aktivlarning mavjudligi va holatini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish zarurligini urg'ulaydi. Bunga asoslanib aytish mumkinki, uzoq muddatli aktivlar auditini sifatli yuritilishi uchun metodik yondashuvlar, hujjatlashtirish tartibi va hisob siyosatining to'g'riligiga e'tibor qaratilishi lozim.

Yuqoridagi adabiyotlardan tashqari yana shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-sonli Qonunida ham mamlakatimizda auditorlik faoliyati standartlari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, "Auditorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lmagan, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining O'zbekiston Respublikasida e'lon qilish to'g'risidagi ruxsatnomasi asosida auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan auditorlik faoliyati standartlari asosida amalga oshiriladi" [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini tizimli o'rganishga, mavjud muammolarni aniqlashga va takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishga qaratildi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda ilmiy izlanishning nazariy va amaliy asoslari o'zaro uyg'unlashtirildi. Tadqiqot davomida tavsifiy tahlil usuli asosida uzoq muddatli aktivlarning mohiyati, ularning auditorlik obyekt sifatidagi o'рни, moliyaviy hisobotlardagi aks ettirilishi hamda ularni audit qilish tartibi o'rganildi.

Tahliliy yondashuv orqali mavjud auditorlik metodikalari tahlil qilinib, ularning amaldagi samaradorlik darajasi baholandi. Solishtirma metod asosida xalqaro amaliyot va milliy tajriba o'rtasidagi farqlar ochib berildi. Xususan, Xalqaro audit standartlari (ISA) asosida faoliyat yurituvchi auditorlik tashkilotlari tajribasi milliy audit amaliyotiga qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning empirik qismi esa korxonalarning real moliyaviy hujjatlari, audit hisobotlari va faoliyat ko'rsatkichlari asosida olib borildi. Auditorlar, buxgalterlar va moliyaviy mutaxassislar bilan suhbatlar tashkil etilib, amaliy muammolar yuzasidan fikrlar olindi. Shu asosda audit jarayonini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchiligidini va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Audit jarayonining tashkiliy jihatlar — bu auditorlik tekshiruvi muvaffaqiyatli o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy tartiblar, rejalashtirish va resurslarni boshqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Uzoq muddatli aktivlarni audit qilishda bu jihatlar ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki aktivlarning murakkab tuzilmasi, turlari va ular bo'yicha huquqiy-texnik hujjatlar sonining ko'pligi tekshiruvni tizimli tashkil qilishni talab qiladi.

Audit jarayoni odatda bosqichma-bosqich rejalashtiriladi, bunda birinchi navbatda auditorlik kompaniyasi yoki guruhining ish doirasi aniqlanadi, audit rejasining loyihasi ishlab chiqiladi, zaruriy hujjatlar ro'yxati shakllantiriladi va tegishli axborotlar yig'iladi. Shu bilan birga, auditorlar tomonidan mijoz korxonaning ichki nazorat tizimi baholanadi, audit strategiyasi ishlab chiqiladi va xavf-xatarlar baholanadi. Auditning tashkiliy jihatlar nafaqat vaqtni tejash, balki tekshiruv sifati va aniqligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda audit jarayonining asosiy tashkiliy jihatlar va ularning mazmuni bilan tanishamiz (1-jadval):

**1-jadval :Audit jarayonining tashkiliy jihatlari¹**

Tashkiliy jihat	Mazmuni va izohi
Audit ob'ekti va doirasini aniqlash	Uzoq muddatli aktivlar tarkibi, turlari va ularni qamrab oluvchi tekshirish doirasi aniqlanadi. Bu bosqichda auditning chegaralari belgilanadi.
Auditorlik guruhi va resurslarni taqsimlash	Audit jarayonida ishtirok etuvchi mutaxassislar (auditorlar, ekspertlar) tanlanadi hamda ularning vazifalari va vaqt bo'yicha yuklamalari belgilanadi.
Mijoz haqida dastlabki axborot to'plash	Korxona faoliyati, mulkchilik shakli, ichki nazorat tizimi, buxgalteriya siyosati va oldingi yillardagi audit natijalari tahlil qilinadi.
Audit rejasini ishlab chiqish	Bosqichma-bosqich reja tuziladi: qanday aktivlar, qachon, qaysi metodlar bilan tekshirilishi rejalashtiriladi.
Ichki nazorat tizimini baholash	Uzoq muddatli aktivlar bo'yicha ichki nazorat samaradorligi baholanadi; ishonchli tizim mavjud bo'lsa, audit hajmi qisqartiriladi.
Xavf va muhimlik darajasini aniqlash	Qanday xatoliklar yuzaga kelishi mumkinligi baholanadi va ularning audit natijasiga ta'siri aniqlanadi.
Audit strategiyasini shakllantirish	Qaysi audit uslublari (inventarizatsiya, hujjat tahlili, o'xshashlik tahlili) ishlatilishi belgilab olinadi.
Mijoz bilan aloqa va hujjat aylanishi	Audit davomida kerakli hujjatlarni o'z vaqtida olish va mijoz bilan muntazam axborot almashinuvini tashkil qilish choralari belgilanadi.
Tashkiliy xavflarni minimallashtirish	Auditga ta'sir qiluvchi tashkiliy xavflar (muddat buzilishi, ma'lumot yetishmasligi) oldindan baholanib, ularni kamaytirish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Ushbu jadvalda keltirilgan audit jarayonining tashkiliy jihatlari uzoq muddatli aktivlar auditining aniqligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Birinchi navbatda, audit doirasini belgilash orqali auditorlar tekshiruv chegaralarini aniqlashtirib oladilar, bu esa resurslarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Auditorlik guruhi-ning shakllanishi va har bir a'zoning vazifalari oldindan belgilanishi esa jamoa ishining izchilligini ta'minlaydi. Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish korxonaning moliyaviy va tashkiliy tuzilmasini tushunishga imkon beradi. Ichki nazorat tizimining samaradorligi esa auditning qanchalik keng qamrovli bo'lishini belgilaydi.

Bundan tashqari, xavf va muhimlik darajasining baholanishi auditorlarni potentsial muammoli sohalarga e'tibor qaratishga undaydi. Strategiyani shakllantirish va audit metodlarini tanlash esa amaliy natijalar olish uchun poydevor bo'ladi. Audit davomida mijoz bilan muntazam aloqa o'rnatilishi va hujjat almashinuvi tashkil etilishi esa barcha bosqichlarning silliq va izchil o'tishiga xizmat qiladi. Oxir-oqibat, tashkiliy xavflarni boshqarish auditning muddatida va sifatli yakunlanishini kafolatlaydi.

Auditning uslubiy jihatlari — bu auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda qo'llaniladigan yondashuvlar, texnikalar va metodlarni anglatadi. Ayniqsa, uzoq muddatli aktivlar auditida uslubiy jihatlar muhim o'rin tutadi, chunki bunday aktivlar ko'p hollarda katta qiymatga ega, ko'p yillik foydalanish muddati bilan ajralib turadi va ularning mavjudligi, huquqiy maqomi, baholanishi hamda amortizatsiyasi chuqur tahlilni talab qiladi.

Shu sababli, auditorlar auditni o'tkazishda turli metodlardan foydalanadilar, masalan: fiziki tekshiruv, hujjatlarni solishtirish, hisob-kitoblarni tahlil qilish, uchinchi tomonlardan tasdiqlovchi axborotlar olish va boshqalar.

Ushbu uslublar auditning asosiy bosqichlari — rejalashtirish, dalillar to'plash, baholash va hisobot tuzishda muhim ahamiyatga ega. Uzoq muddatli aktivlar holatini aniq va ishonchli baholash uchun har bir bosqichda mos metodlar qo'llanilishi zarur. Shuningdek, xalqaro audit standartlarida (xususan, ISA 500, ISA 540) auditorlik dalillarining yetarliligi va ishonchligi asosiy talab sifatida belgilanadi. Quyida auditning uslubiy jihatlarni ifodalovchi asosiy metodlar va ularning mazmuni jadval shaklida keltirilgan (2-jadval):

2-jadval: Auditning uslubiy jihatlari²

Uslubiy jihat	Mazmuni
Fizik kuzatuv	Auditor tomonidan uzoq muddatli aktivlarning joyida mavjudligi va holati bevosita ko'zdan kechirish orqali tekshiriladi.
Hujjatli dalillar tahlili	Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va investitsiyalar bo'yicha huquqiy hujjatlar, shartnomalar, reyestrlar va aktlar tekshiriladi.
Inventarizatsiya	Audit ob'yekti bo'lgan aktivlarning miqdor va holatini solishtirish uchun inventarizatsiya natijalari asosida dalillar shakllantiriladi.

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

² Muallif tomonidan tayyorlangan

Hisob-kitoblarni tekshirish	Aktivlarning qiymati, amortizatsiyasi, eskirish darajasi, qayta baholash natijalari va boshqa hisob-kitoblar matematik asosda qayta tekshiriladi.
Tashqi manbalardan ma'lumot olish	Aktivlar bo'yicha uchinchi tomonlardan (masalan, sug'urta kompaniyalari, baholovchilar) mustaqil ma'lumotlar yoki tasdiqlar olinadi.
Solishtirma tahlil	O'tgan davrlar bilan yoki boshqa korxonalar bilan aktivlarning qiymati, eskirish darajasi va boshqa ko'rsatkichlari solishtirib tahlil qilinadi.
Savol-javob va so'rovnoma	Korxona menejerlari yoki mutaxassislari bilan suhbatlar orqali aktivlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar olinadi.
Audit namunalari asosida tekshirish	To'liq tekshiruv o'rniga, tanlab olingan aktivlar bo'yicha tekshiruv o'tkazilib, umumiy xulosa chiqariladi.

Yuqoridagi jadval uzoq muddatli aktivlar auditida qo'llaniladigan asosiy uslubiy yondashuvlarni ochib beradi. Har bir metod ma'lum bir maqsadga xizmat qiladi: masalan, fizik kuzatuv aktivlarning mavjudligini tasdiqlasa, hujjatli tahlil ularning huquqiy va buxgalteriyaviy asoslilikini aniqlashga imkon beradi. Inventarizatsiya orqali aktivlarning haqiqatda mavjudligi va miqdori tekshiriladi, hisob-kitoblarni tahlil qilish esa aktivlar bahosining to'g'riligini aniqlaydi.

Tashqi manbalardan ma'lumot olish auditorning xulosalarini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa xolislikni ta'minlaydi. Solishtirma tahlil korxonaning aktivlar holatini boshqa subyektlar bilan taqqoslab baholash imkonini beradi. Savol-javoblar orqali ichki axborot to'planadi, audit namunalari esa resurslarni tejagan holda vakillik asosida tekshiruvni tashkil etish imkonini yaratadi.

Barcha metodlarning uyg'un qo'llanilishi auditning aniqligini oshiradi va xatoliklar ehtimolini kamaytiradi.

Uslubiy jihatlar auditorning professional mulohazasi asosida tanlanadi, ya'ni har bir holatda eng maqsadga muvofiq yondashuv qo'llaniladi. Shu bois, metodlar o'zaro to'ldiruvchi, tekshiruvga tizimli yondashuvni shakllantiruvchi vositalar sifatida qaraladi.

Uzoq muddatli aktivlar auditini takomillashtirishda xalqaro tajriba va milliy amaliyot o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda audit sohasi ko'p yillik tajriba, texnologik yondashuv va puxta normativ-huquqiy asoslar bilan yo'lga qo'yilgan. Audit jarayonida xalqaro standartlar — xususan, Xalqaro audit standartlari (ISA) va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. Shu orqali audit ishonchiligi, tahlil sifati va xulosalarning obyektivligi yuqori bo'ladi.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda esa audit tizimi hali-hanuz bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Milliy standartlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ulardan foydalanish darajasi turlicha. Auditorlarning texnologik bilimlari, zamonaviy metodlardan foydalanish darajasi va audit xulosalarining aniqligi ayrim hollarda cheklangan.

Biz xalqaro tajribalar va milliy audit amaliyoti o'rtasidagi asosiy farqlar, o'xshashliklar va rivojlantirish imkoniyatlarini quyidagi jadvalda yoritdik (3-jadval):

3-jadval: Xalqaro tajribalar va milliy audit amaliyotining qiyosiy tahlili³

Ko'rsatkich	Xalqaro tajriba	Milliy amaliyot (O'zbekiston)
Audit standartlari	ISA (Xalqaro Audit Standartlari), GAAS, IFRS	Milliy audit standartlari, qisman ISA elementlari
Texnologiyalardan foydalanish	Zamonaviy dasturlar (ERP, SAP, Oracle), avtomatlashtirilgan audit tizimlari	Ko'pchilik auditorlar hali-hanuz an'anaviy usullarni qo'llaydi
Auditor mustaqilligi	Mustaqillik qonun bilan kuchli himoyalangan, shaffoflik yuqori	Auditor mustaqilligi mavjud, lekin mijoz bilan moliyaviy bog'liqlik xavfi hali saqlanib qolgan
Audit metodlari	Riskka asoslangan yondashuv, namunaviy tanlov, tahliliy yondashuvlar keng qo'llaniladi	Asosan hujjatlarni formal tekshirish, kamdan-kam hollarda risk tahlili amalga oshiriladi
Kadrlar malakasi	Professional sertifikatlangan auditorlar (ACCA, CPA, CIA va boshqalar) mavjud	Mahalliy malaka bilan cheklangan, xalqaro sertifikatga ega auditorlar soni kam
Axborotlar ochiqqligi	Moliya hisobotlari ochiq, ommaviy auditorlik xulosalari mavjud	Ko'pgina hisobotlar yopiq, audit natijalari kamdan-kam hollarda jamoatchilikka e'lon qilinadi
Faoliyatni nazorat qilish	Audit sifatini nazorat qiluvchi mustaqil reguliyatorlar mavjud	Davlat nazorati mavjud, ammo muqobil (mustaqil) nazorat tizimi yetarli darajada rivojlanmagan



Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar xalqaro va milliy audit amaliyoti o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Xalqaro tajribada audit standartlari chuqur rivojlangan bo'lib, deyarli barcha auditorlik faoliyatlari ushbu mezonlarga asoslanadi. Ayniqsa, texnologiyalardan foydalanish darajasi yuqori bo'lib, bu audit jarayonining aniqligi va tezligini oshiradi. Auditorlar mustaqil bo'lib, audit xulosalari shaffof va ochiq tarzda taqdim etiladi.

Milliy amaliyotda esa ushbu jihatlar hali to'liq shakllanmagan. Ko'pchilik hollarda audit hujjatlar tahliliga asoslangan holda, formal yondashuv bilan amalga oshiriladi. Auditorlarning malakasi, xalqaro sertifikatlarga ega bo'lgan mutaxassislar soni yetarli emas. Bundan tashqari, audit natijalari ommaga ochiq taqdim etilmaydi, bu esa ishonchlilik va shaffoflik darajasini pasaytiradi.

Shunday bo'lsa-da, O'zbekistonda audit sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xalqaro standartlarni milliy amaliyotga integratsiya qilish, auditorlarni qayta tayyorlash, axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish orqali uzoq muddatli aktivlar auditi sifatini oshirish mumkin. Shu yo'l bilan milliy audit tizimi xalqaro amaliyotga yaqinlashtiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish bugungi iqtisodiy islohotlar va korxonalar moliyaviy boshqaruvining shaffofligini ta'minlash sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu aktivlar korxona ishlab chiqarish salohiyatining asosiy tayanchi hisoblanib, ularning to'g'ri hisobga olinishi, baholanishi va nazorat qilinishi moliyaviy hisobotlarning ishonchlilikini belgilaydi. Shu bois, uzoq muddatli aktivlar auditini yuqori sifat darajasida olib borish, mavjud uslubiy yondashuvlarni yangilash va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish zarur.

Maqolada olib borilgan tahlillar natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, amaldagi audit amaliyotida uzoq muddatli aktivlar bo'yicha auditorlik jarayonlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ayrim hollarda audit faqat hujjatlarni tekshirish bilan cheklanib, aktivlarning amaldagi holati va foydalanish samaradorligiga e'tibor qaratilmayapti. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish darajasi pastligi va auditorlarning kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligi aniqlangan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Birinchidan, uzoq muddatli aktivlar auditiga oid metodik qo'llanmalarni takomillashtirish, xalqaro audit standartlariga mos ravishda har bir aktiv turi bo'yicha alohida yondashuvlar ishlab chiqish zarur;
- Ikkinchidan, auditorlarning malakasini oshirish bo'yicha uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarini yo'lga qo'yish, ularga zamonaviy audit texnologiyalari, axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar asosida ishlash ko'nikmalarini singdirish muhimdir;
- Uchinchidan, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish, ya'ni korxona doirasida aktivlar holati ustidan doimiy monitoring olib borish tizimini yo'lga qo'yish orqali tashqi auditga tayyorgarlik kuchaytiriladi;
- To'rtinchidan, raqamli audit vositalarini keng joriy etish, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili dasturlaridan foydalanish orqali audit jarayonini tezkor va aniq amalga oshirish mumkin.

Umumiy qilib aytganda, uzoq muddatli aktivlar auditini takomillashtirish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligi, investitsion ishonchlilik va korxonaning raqobatbardoshligi oshadi. Bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-sonli Qonuni
2. Юнусова Д.А., Насрутдинова Ю.А. Аудит внеоборотных активов // "Экономика и социум" №4(71) 2020. С. 629-636.
3. G.M.Raximova. Buxgalteriya hisobi. (Darslik). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. 356 bet.
4. Sattorov R.X. Auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish: 08.00.08 – "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" PhD ilmiy darajasini ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2024-y. 56 b.
5. Abdusalomova N.B. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish" nashriyot-matbaa uyi, 2021. 966 b.
6. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 400 b.
7. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2021-y. 30 b.
8. Hamdamov B.K., Ilxomov Sh.I., Karimov N.X. Amaliy audit. Darslik. ООО «Lesson Press» nashriyoti. 2021. -300 b.
9. Эргашева Ш.Т. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник. – T.: "Инновацион ривожланиш" нашриёт-матбаа уйи 2021. 424 с.
10. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qollanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
11. Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. -T.:



«Fan va texnologiya», 2016, 208 bet.

12. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
13. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
14. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
15. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100